www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

AMALIY MASHG'ULOTLARDA AN'ANAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARNING TIKUVCHILIK MATERIALSHUNOSLIGIGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Ruziyeva Dilafro'z Muminovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Yunusova Sevaraxon Xabibullo qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lim yo'nalishi, 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida talabalarning amaliy bilimlarini rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlar samaradorligi va ta'lim oluvchilarni amaliy mashg'ulotga tayyorlanish sifatlari hamda an'anaviy ta'lim berish usullari to`g`risida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar:amaliy mashg'ulot, an'anaviy ta'lim texnologiyalari, kompetensiya, ta'lim berish usullari.

Kirish:O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:

oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi «xab»ga aylantirish;

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Ma’ruza materiallarini chuqurroq o‘zlashtirish, o‘rganilgan pedagogik ma’lumotlarni amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilinadi.

Amaliy mashg‘ulot – bu ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi, mashg‘ulotni o‘qitish shaklidir. Amaliy mashg‘ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma’ruza darsi mavjud bo‘lgan va ma’ruza darsi mavjud bo‘lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar. Amaliy mashg‘ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat’iy amal qilingan holda o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha zarur adabiyotlar ro‘yxati beriladi. Ma’ruza darsi mavjud bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarda asosan ma’ruza darslarida o‘tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi.

Amaliy mashg‘ulotning o‘ziga xos tomoni o‘quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o‘rni, o‘qituvchi va talaba faoliyatining tashkil etilishi bilan xarakterlansada, amaliy mashg‘ulotning vazifasi amaliy va juda tor asosda belgilanadi. U asosan ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda egallagan bilimlar bayon etilgan bilimlar bayon etilgan ma’lumotlarni chuqur va puxta o‘rganishga talaba mustaqil ishining sifati va o‘zlashtirishning samarasini aniqlash bilimlarni ko‘nikma va malakaga aylantirish maqsadida tashkil qilinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti ta’lim jarayoniga asosan yangicha yondashishni, ta’limning faol metodlari va texnologiyalarini qo‘llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan an’anaviy ta’lim berish usuli ta’lim oluvchilarning fikr yuritish va bilish faolligining o‘sishiga ham yordam beradi. Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta’lim oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko‘nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkiliy shakllari deganda, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o‘tadigan faoliyati tushuniladi. O‘qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o‘qitishning har xil ko‘rinishda qo‘shib olib borilishi, o‘qitishda ta’lim oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta’lim oluvchilarning o‘qishga o‘qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi. O‘qitishni tashkil etish shakllarini tanlash ta’lim-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o‘quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo’lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko’rinishi bo’lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o’z-o’zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o’tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar)ning ma’lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko’rinishi kasbiy ta’limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Mutaxassislik fanlarni o’qitishning tashkiliy shakllari deganda o’quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun talabalarlar jamoasini tashkil etish yo’llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o’quv mashg’ulotlarini tuzilish tarkibi tushuniladi. Ta`limni u yoki bu shaklini tanlashda, talabalarni kasbiy bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari,mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko’rsatkich)larini u yoki bu shakllariga bog’liq.

Mutaxassislik fanlarining o’qituvchilari maxsus fanlardan tajriba-amaliy mashg’ulotlarini o’tkazishda, talabalarni nazariy mashg’ulotlar davomida olgan bilim va ko’nikmalaridan foydalanadilar, ularni chuqurlashtiradilar. Tajriba-amaliy mashg’ulotlardan ko’zda tutilgan maqsad ko’p jihatdan uni o’tkazish metodikasini talabalar ishiga maxsus fan o’qituvchisining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajriba yoki amaliy ishlarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi. Talabalar nazariy materialni o’zlashtirib olganlaridan, o’rganilayotgan hodisalar,

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

jarayonlar bilan tanishganlaridan so'ng ular bilan tajriba-amaliy mashg'ulotni o'tkazish ancha oson ko'chadi.

Bu holda o'qituvchining yangi mavzu bo'yicha mashg'ulot o'tkazishga oid o'quv axboroti nihoyatda qisqa va aniq bo'ladi. O'quv axboroti natijasiga asoslanib talabalar ma'lum xulosalar chiqarishi kerak bo'lgan tajriba-amaliy mashg'ulotlarni bajarish ancha murakkab hisoblanib, ta'lim oluvchilarni bunga oldindan tayyorlash va o'qituvchining o'quv axboroti ancha batafsil bo'lishi zarur.

O'qituvchi talabalarga tajriba-amaliy mashg'ulotlarining bajarilish jarayoniga yo'riqnoma berish yo'li bilan rahbarlik qiladi. Yo'riqnoma berishdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalar ongida topshiriqni eng samarali bajarish uchun faoliyatning yo'nalish asoslarini yaratishdan iborat. Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, insonning mehnat faoliyati ikki tomonga: yo'nalish va ijro tomonlariga ega. Yo'nalish tomoni faoliyatning ob'ektiv sharoitlarining (masalalar, usullar, mezonlar, bajarilish shartlari, texnika vositalari va shu kabilar)ning inson ruhiyatidagi in'ikosi, ijro tomoni esa harakatning bevosita bajarilishi. I. P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, yo'nalish refleksi markaziy asab tizimida shartli bog'lanishlar hosil bo'lishiga asos hisoblanadi.

Bu bog'lanishlar bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishniig fiziologik asosidir. Tajriba-amaliy mashg'ulotlarini o'quv jarayonida amalga oshirishda yo'riqnomalar tizimidan foydalaniladi. Yo'riqnomalar mashg'ulotda o'tkazilish vaqtiga ko'ra kirish, joriy va yakunlovchi yo'riqnomalarga; ma'lumot berish usuliga ko'ra og'zaki va yozma yo'riqnomaga bo'linadi.

Kirish yo'riqnomasi talabalarni tajriba-amaliy mashg'ulotlarni bajarishga tayyorlashda juda muhim ahamiyatga ega. Har bir tajriba-amaliy mashg'ulot bajariladigan ishdan ko'zlangan maqsad, maqsad sari olib boradigan yo'llar talabalarga tushunarli bo'lgan taqdirdagina ijobiy va qimmatli natijalar beradi. Talabalar o'zlariga taklif etilayotgan ish o'rganilgan material bilan qanday bog'langanligini yoki yanada oldinga siljish uchun u qanday ahamiyatga ega ekanligini anglab olishlari kerak.

Kirish yo'riqnomasining metodikasi ko'p jihatdan tajriba-amaliy mashg'ulotni o'tkazishdan ko'zda tutilgan asosiy didaktik maqsadga va uning qanday o'tkazilishiga bog'liq.

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan o'qitish shakllarining yana bir shakli amaliy mashg'ulotidir. Agar ma'ruza katta patok (oqim)da o'tkazilsa, amaliy mashg'uloti alohida guruhda o'tkaziladigan o'quv ishlarining bir shakli hisoblanib, talabalar o'quv-biluv faoliyatlari, mustaqil bilim olishlari, ijodiy fikr yuritishlarini yo'lga qo'ya oladigan o'qitish shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham u oliy ta'lim maktabida olib boriladigan o'qitish shaklining o'ziga xos bir shakli hisoblanadi. Amaliy (lotincha amaliyium) olimlarning muayyan ilmiy soha bo'yicha ma'lumotlarni muhokama qilishning dastlabki shakli bo'lgan. Keyinchalik ilmiy faoliyatlardan o'quv jarayoniga ko'chib, talabalarning ishchanligi, bilim darajasi fanga qiziquvchanligi, xarakteri, psixologiyasiga xos tomonlarini aniqlash shakliga aylandi, hozirgi kunda amaliy mashg'uloti suhbat, ma'ruza bo'yicha fikr almashish, rolli o'yinlar shaklida o'tkazish nazarda tutilgan.

Mashg'ulotni amaliy, ma'ruzada o'tkazilishining muhim tomoni shundaki, unda o'qituvchi ham talaba ham puxta tayyorgarlik ko'radi. Har ikkala faoliyat egasi, manbaalar bilan ishlash, amaliy rejasida ko'rsatlgan savollarga javoblar topishda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan tanashib chiqishlari lozim bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda jonli muloqot amalga oshadi, qarama-qarshi ziddiyatli fikrlar to'qnashuvi, ularni talabaga muvofiq hal etish ishlari yo'lga qo'yiladi.

Shuning uchun amaliy olib boruvchi o'qituvchi auditoriyaga jonli muloqotni, bahs-munozara ishlarini, o'z nuqtai nazarini dalillash, o'zgalar fikrini tinglay olish, muhokamaga kirishish yo'llarini aniq tanlashi lozim. Mashg'ulotning yakunida o'qituvchi umumiy xulosa yasab, amaliy mashg'ulotining borishi, ishtirokchilar faolligi yoki passivligini alohida qayd etib,

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

navbatdagi amaliy mashg‘ulotini o‘tkazish haqida tavsiyalar berish, o‘ylab ko‘rish, fikrlarni yanada to‘ldirish uchun savollar, masalalarni ilgari surish, maslahatlar berish, adabiyotlar ro‘yxatini e’lon qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ilmiy nazariy, amaliy-metodik jihatdan yuksak darajada o‘tkazilgan amaliy mashg‘uloti talabalarga fanga qiziqishi, manbalar va adabiyotlar bilan ishlashga ishtiyoq faollikka intilish uyg‘otsa, o‘qituvchilarga o‘z ilmiy- nazariy malakasiga oshirishga,ilmiy adabiyotlarga ijobiy munosabatda bo‘lish, fan yangiliklarga ishonch, e’tiqod va fanga qo‘yilayotgan muammolarni yechishga ishtiyoqni tarbiyalaydi.

Demak, amaliy mashg‘ulotlarining sifatli va samarali o‘tishiga o‘qituvchi mahorati muhim rol o‘ynaydi. Amaliy mashg‘uloti o‘ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda talabalar o‘z fikrlarini, nuqtai nazarlarini ochiqdan ochiq bayon etadilar, qat’iyatlik bilan o‘zlashtirganlarini himoya qiladilar, muloqotda fikr almashinish amalga oshadi. Amaliy mashg‘uloti haqiqatan ham qiziqarli bo‘lishi uchun u bahs-munozara shaklida, ammo boshqariladigan bo‘lishi lozim. Buning uchun bahs-munozara tartibi o‘qituvchi tomonidan oldindan o‘ylab chiqiladi, ishchi rejada ma’lum savollar, misollar, syujetlar belgilanadi.

Har bir fanning o‘quv maqsadlari to‘g‘ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Umumiy o‘quv maqsadlarining mazmuni yo‘naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. O‘qituvchi tomonidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish texnologiyasi, dars ishlanmasi va texnologik xaritasi ishlab chiqiladi. Har bir mashg‘ulot bo‘yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o‘quv jarayonini to‘laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Talaba tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko‘rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli harakatlanishi o‘qituvchini quyidagi boshqaruv harakatlarini aniqlaydi: rejalashtirish, tashkillashtirish hamda monitoring va baholash.

O‘zini o‘zi tekshirish uchun har bir o‘quv mashg‘ulotiga tavsiya etilayotgan topshirik (test, savol, vazifa va mashqlar) joriy pedagogik nazoratni va talaba tomonidan kuzatilgan ta’limiy maqsadlarga erishish darajasini doimiy o‘zi baholanish ta’minlaydi.

Xulosa:qilib aytganda, amaliy mashg‘ulotning muvaffaqiyatliligi doimo talabalar faolligiga bog‘liq, shuning uchun o‘qituvchining ikkinchi majburiyati – amaliy mashg’ulotlarni har tomonlama rivojlantirish va talabalarni rag‘batlantirishdan iborat. Talabalarning faolligi bu nafaqat amaliyda qatnashish va bahs-munozaralar, balki eshitish qobiliyatini ham rivojlantirib boradigan jarayondir. Shu bois, talabalarga eshitish va gapirish qobiliyati kabi muhim fazilatlarni tushuntirish lozim.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Methods to improve hackles in the production of quality yarn F Kazakov, I

Rajabov, J Umirov, D Ruziyeva, A Aripova

Journal of Physics: Conference Series 2094 (4), 042091

2. The Importance of Using Graphics Programs in The Design of Sewing Items

RE Tohirovich, RD Dilmurodovna, RD Muminovna

Web of Teachers: Inderscience Research 1 (3), 5-8

3. REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (IN THE CASE OF NAVOI REGION)

DM Ruziyeva, Y Madinabonu Conferencea, 178-183

4. FEATURES AND ADVANTAGES OF THE STRUCTURE OF BAKED THREADS USED IN THE PREPARATION OF SEWING PRODUCTS

DM Ruzieva - GOLDEN BRAIN, 2023 - researchedu.org Page 1 GOLDEN BRAIN ISSN: 2181-4120 VOLUME 1 | ISSUE 17 | 2023 https://t.me/goldenbrain_journal

5.TIKUV BUYUMLARINI TAYYORLASHDA ISHLATILADIGAN PISHITILGAN IPLARNING TUZILISH XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI

RD Muminovna - SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 2023

6. TEXNOLOGIYA TA'LIMI PRAKTIKUMI FANINI O 'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASH IMKONIYATLARI

DD Rayimova, SI qizi Bahronova, DM Ruziyeva, NU Davlatova

Educational Research in Universal Sciences 2 (5), 616-619

7. РОЛЬ ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ВЫСЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

НТ Гафурова, АНК Арипова, ДМ Рузиева

Архивариус 7 (8 (62)), 20-23

8. CLASSIFICATION OF SOFTWARE EDUCATIONAL TOOLS FOR USE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM BT D.M. Ruziyeva

For Participation in the sientific conference
International Conference On Higher Education …, 2023

9. Учредители: Серенити-Груп, Буткевич Виктор Васильевич

НТ ГАФУРОВА, АНК АРИПОВА, ДМ РУЗИЕВА

АРХИВАРИУС Учредители: Серенити-Груп, Буткевич Виктор Васильевич 7 (8), 20-23

10. S.I. Baxtiyorova, X.Y. Hamroyeva. "Methods of Teaching Materials Science on the Basis of Innovative Educational Technologies". Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Peer Reviwed International Journal. 2022. Amerika. 133-136 pg. https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/1309

11.S.I. Baxtiyorova. "Использование программного обеспечения в преподавании материаловедения". "Наука, техника и образование" научно–методический журнал № 2(77) / 2021 г. Россия, Москва 80-83 с.

https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-programmnogo-obespecheniya-v-prepodavanii-materialovedeniya